

## O‘ZBEK MAROSIM FOLKLORINING TADQIQ ETILISHI



**Asatillo Sunnatovich Sunnatillayev**

Dotsent, mustaqil izlanuvchi

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy  
tadqiqot instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-07-10>

**Annotatsiya:** Ajdodlarimizning e’tiqodiy inonchlarini o‘rganishda o‘zbek xalqining nodir badiiy-estetik qadriyatlarini, ya’ni marosim, urf-odat, an’ana va xalq og‘zaki ijodi boyligini tadqiq etish, ularning ijobiy jihatlaridan o‘rinli foydalanish, unutilib ketgan ma’naviy merosning uzvlarini qayta tiklash, ommalashtirish muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o‘zbek marosim folklorining tadqiq etilishi masalalari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** marosim, qo‘shiq, folklor, urf-odat, an’ana, bayram, marosim folklori.

**Аннотация:** При изучении религиозных верований наших предков важное социальное значение имеет исследование уникальных художественно-эстетических ценностей узбекского народа, а именно богатства обрядов, обычаев, традиций и устного народного творчества, уместное использование их положительных аспектов, восстановление и популяризация элементов забытого духовного наследия. В данной статье рассматриваются вопросы изучения узбекского обрядового фольклора.

**Ключевые слова:** обряд, песня, фольклор, обычаи, традиция, праздник, обрядовый фольклор.

**Abstract:** When studying the religious beliefs of our ancestors, it is of great social importance to investigate the unique artistic and aesthetic values of the Uzbek people, specifically the richness of rituals, customs, traditions, and oral folk art. It is equally important to appropriately utilize their positive aspects and to restore and popularize elements of the forgotten spiritual heritage. This article examines the issues surrounding the study of Uzbek ritual folklore.

**Key words:** ritual, song, folklore, customs, tradition, holiday, ritual folklore.

O‘zbek xalq qo‘shiqlari og‘zaki ijodimizning qadimiy lirik janri hisoblanadi. Maqol, matal, topishmoq bilan bir qatorda xalq qo‘shiqlarining Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu tug‘otit turk» kitobidan joy olishi ham bejiz emas. Bu, bir tomondan, xalq qo‘shiqlarining o‘sha olis davrlarda ham rang-barang bo‘lganligi, tarixiy ildizlari juda qadimiy ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, ularni tasniflashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, lirikada asar yaratuvchining atrof-muhitdan ro‘y berayogan voqealarga nisbatan histuyg‘ulari orqali bildirgan munosabati aks etadi. Demak, qo‘shiqlarni aytuvchining ruhiy ifodasi sifatida qabul qilish mumkindir. Chunki hayot taqozosi bilan ro‘y bergan voqea-hodisadan xursand bo‘lgan kimsa o‘z mamnunligini va dardini qo‘shiq orqali ifodalashga intiladi. Shuning uchun ham xalq maishiy hayotida muhim hisoblangan to‘y ham, aza ham qo‘shiq san’ati bilan bog‘langandir. O‘zbeklarda qo‘shiq keng ma’noda xalq poeziyasi, xalq lirikasi demakdir. Qo‘shiqlar xazinasining asosi badiiy yuksak an’anaviy namunalardan iborat. Umumfolkloridagi kabi xalq lirikasida ham poetika an’anaviy, an’ana poetik-lashgandir. Shu sababli an’anaviy qo‘shiqlarning tashqi – surat ma’nosi bilan birga zamonaviy ijrochi va tinglovchi ilg‘ab ola olmaydigan, xalqning qadim inonch-tasavvurlari, marosimlari, irimlari bilan bog‘liq siyrat ma’nolari ham bor .

O‘zbek marosim folklorining tadqiq etilishi masalasini o‘rganishda, uning ilmiy-nazariy jihatdan yoritishda yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlari asosiy tayanch manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek marosim folklorining o‘ziga xos jihatlari, poetik asosi, janrlar tarkibi, rasm-rusumlar, qadimiy urf-odatlar, e’tiqodiy tasavvurlar, ramzlar umumturkiy xalqlar madaniyati bilan bog‘liq holda tadqiq va tasnif etilganini hisobga olib ushbu faslda asosiy manba sifatida olim B.Sarimsoqovning «O‘zbek marosim folklori» monografiyasini tanladik.

B.Sarimsoqov o'zining «O'zbek marosim folklori» nomli monografiyasida «marosim» va «marosim folklori» tushunchalari, «marosim va «urf-odat» tushunchalari, «marosim» va «bayram» tushunchalarining mohiyatini oydinlashtiradi.

Marosimlar jamiyat, xalq va shaxs hayot faoliyatidagi muhim o'zgarishlar, ijtimoiy ahamiyatga molik voqea-hodisalar bilan bog'liq bo'lib, ular ibrat orqali tarbiyalash, ruhiy-estetik ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi. Ular xalqning ma'naviy ehtiyojlari zaminida paydo bo'lib, shakllanib, sayqallanib, o'z mazmunida shu xalqning orzu-o'ylari istaklari, turmush tarzi, axloq normalarini mujassam etadi.

Marosim inson moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan, tabiiy xatti-harakat, bezak (dekoratsiya) va tekstga ega bo'lgan hayotiy «sahna» asaridir.

Darhaqiqat, marosim inson turmushida muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi va kishilar hayotidagi eng azaliy voqealarni (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lim kabi)larni qayd etadi, rasmiylashtiradi.

Marosim – inson, oila, jamoa hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, umum qabul qilingan qoida-tartiblarga amal qilinadigan hayotiy tadbir.

...urf-odat tushunchasi o'ta keng bo'lib, u o'z ichiga xalq hayotining barcha tomonini – oddiy kundalik udum, rasm-rusum, irim-sirimlar, o'zaro-muomala tarzi hamda barcha marosimlarni butunicha qamrab oladi. Marosim tushunchasi nisbatan tor tushuncha bo'lib, u shu xalq hayotining ma'lum sohalarida omma tomonidan qabul qilingan, ko'pincha ramziy xarakterga ega bo'lgan va ma'lum kishilar majmui tomonidan maxsus uyushtiriladigan namoyishlardan iborat. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda keladi va yashaydi. Boshqacha qilib aytganda, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy xarakterlarga ega bo'lgan hayotiy tadbir.

«Urf-odat» deyilganda kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddat takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xalq-atvor qoidalari ko'nikmasidir. Demak, ushbu marosim va urf-odatga berilgan qisqacha qaydlardan ko'rinib turibdiki, urf-odat tushunchasi xalq hayotining barcha sohasini o'z ichiga qamrab olsa, marosim tushunchasi hayotning muayyan sohalarigagina aloqador.

Urf-odat bir vaqtning o'zida bir shaxs yoki bo'lmasa ko'pchilik tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qoida bo'lsa, marosim belgilangan shaxslar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan xatti-harakatdir. Jumladan, kichikning kattaga birinchi salom berishi yoki ko'pchilikka kamchilikni salom berishi, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida yaqinlari, keksa qariyalar, qo'ni-qo'shnilar holidan xabar olish kabi ko'rinishlar o'zbeklarga xos milliy urf-odatlardir.

Urf-odatlar bilan marosim orasidagi o'zaro farqni ular ichidagi ramziy harakatlarni qo'llanilishi darajasi orqali ham anglab olish mumkin. Jumladan, urf-odat o'z ichiga ramziy va ramziy bo'lmagan harakatlarni to'la qamrab olsa, marosim faqat ramziy xarakterdagi xatti-harakatlarnigina qamrab oladi. Qolaversa urf-odat muayyan xalq uchun asosan bir xil – o'zgarmas qoida, norma bo'lsa, marosim bir xalq doirasida keskin lokal farqlanishlarga ham ega bo'ladi. Shuningdek har qanday marosim o'zi mansub bo'lgan xalq urf-odatlarining tarkibiy qisimlaridan biri hisoblanadi. Shu bois marosimdan urf-odat elementlarini qidirib topish mumkin, lekin urf-odatdan marosimni qidirib bo'lmaydi. Bu o'rinda biroz boshqacharoq tarzda folklorshunos B.Sarimsoqov ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, har qanday marosim urf-odat hisoblanadi, ammo har qanday urf-odat marosim bo'la olmaydi.

Xullas, marosim xalq urf-odatlarining ma'lum qismini tashkil etadi, qolganlari esa marosimsiz rioya qilinadigan rasm-rusum, irim-sirim va an'analar hisoblanadi.

B.Sarimsoqov ushbu monografiyasida marosim va bayram tushunchalarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini tahlil va tasnif etgan.

Darhaqiqat, bu ikki tushuncha o'zbek folklorshunosligida qorishib qo'llaniladi. Bu o'rinda gap faqat tushunchalardagina emas, balki ana shu tushunchalar asosida yotuvchi hodisalarning o'ziga xosligi, alohidaligi ustida bormoqda. Bizningcha, marosim va bayram alohida hodisalar bo'lib, ular o'rtasidagi farqlanishlar quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

1. Bayramga xos xususiyatlar, eng avvalo, uning maxsus taomlar tayyorlanishi, yangi liboslar kiyish hamda hazil va xursandchilik bilan o'tkazilishida ko'zga tashlanadi. Marosimda yuqorida ko'rsatilgan belgilarning barchasi mujassamlashgan holda uchramaydi.

Albatta, «Sust xotin», «Choy momo» kabi mavsumiy marosimlarda yangi liboslar kiyish, marosimga atab maxsus taom tayyorlash xursandchilik kabi elementlar uchramaydi. To'y marosimida barcha yangi libos kiyib, xursandchilik kayfiyatida bo'lsa, motam marosimlarida esa maxsus libos kiyilib motam ishtirokchilari motamsaro kayfiyatda bo'ladi.

2. Bayram umumxalq miqyosida maxsus belgilangan bir kunda o'tkazilsa, marosim hamma vaqt mavsum yoki hayot talabi bilan muayyan joydagina o'tkaziladi. Motam marosimi faqat biror kishi vafot etsa, to'y marosimi esa biror kishi uylansa, umumxalq doirasida emas, belgilangan joydagina o'tkaziladi.

Bugungi kunda folklorshunoslik va etnografiya fanlari marosim va bayram tushunchalarining o'zaro bir-biriga o'xshash jihatlarini, aloqadorlik mavjudligi bo'yicha alohida ahamiyat berib o'rganilmoqda.

Darhaqiqat, har qanday bayram dastlab marosim sifatida yuzaga kelib, keyinchalik umumxalq miqyosiga ko'tarilgan va marosimga jiddiylik xarakterini ma'lum darajada yo'qotgan.

«Marosim folklori» tushunchasi o'z navbatida, ikki muhim komponentni o'zida mujassamlashtiradi. Bular marosimning syujetikasi (kechish tarzi va bajariladigan xatti-harakatlar) va uning so'z (verbal) komponenti bilan bog'liq uzvlardan iborat. Marosim folklori ikki muhim komponentdan - harakat va so'zdan tashkil topib, ularni bir-biridan ajratib o'rganish mumkin emas. Chunki bu ikki komponent yaxlit holda marosimning o'zini tashkil etadi; ular bir-birini to'ldiruvchi ajralmas qismlar hisoblanadilar.

Marosimning syujetikasi (kechish tarzi va bajariladigan xatti-harakatlar)ni asosan etnografiya fani o'rgansa, uning so'z (verbal) qismini folklorshunoslik o'rganadi. Bizning tadqiqotimizning asosiy ob'ekti ham marosimning so'z bilan bog'liq komponenti hisoblanadi.

Har qanday marosim etnografik jihatdan o'rganilsa, asosiy ob'ekt xatti-harakat va u bilan bog'liq seyr-jodu qudratiga ega bo'lgan predmetlar hisoblanib, so'z komponenti marosimning mazmuni hamda mohiyatini aniqlashtiruvchi, uning tabiatidagi ramziylikning nozik tomonlarini yorituvchi manba vazifasini o'taydi. Agar u yoki bu marosim folklorshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilsa, u holda harakat komponenti yordamchi manba vazifasini o'taydi.

B.Sarimsoqov asosan e'tiborni marosimning verbal qismi ya'ni so'z komponentiga qaratadi.

Marosim o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Marosimning yuzaga kelishi muayyan hayotiy zarurat bilan bog'liq. Binobarin, marosim tarkibiga kiruvchi verbal komponent o'sha marosimning hayotiy-zaruriy maqsadini reallashtirishda belgilovchi rol o'ynaydi.

Olim B.Sarimsoqov marosim folklori tarkibidagi verbal komponentlarning bajargan funksiyalariga qarab o'zbek marosim folklorini quyidagi tiplarga ajratadi:

Birinchi tip – verbal komponent konativ, denotativ va informativ funktsiya o'tovchi janrlar. Bu tipga kinna, badik, burey-burey, avrash, olqish, qarg'ash kabi janrlarni kiritadi.

Ikkinchi tip – verbal komponent konativ, emotiv va informativ funktsiya o'tovchi janrlar. Bu tipga mavsum marosimlari sirasiga kiruvchi sust xotin, choy momo kabilar mansub.

Uchinchi tip – verbal komponent konativ, emotiv, faktik, denotativ, informativ funktsiya o'tovchi janrlar. Bu tipga kelin salom, yor-yorlar, yig'i-yo'qlovlar, motam yor-yorlari mansubligini e'tirof etadi.

Olim birinchi tipga mansub bo'lgan janrlarda verbal qism ya'ni so'z komponenti olib tashlansa marosim o'zining hayotdagi maqsadini yo'qotishini ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham ushbu janrga mansub bo'lgan kinna janrini so'zsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. B.Sarimsoqovning xulosasiga ko'ra ushbu janrlarda xatti-harakat va verbal qism teng ishtirok etadi ya'ni bir-birini to'ldiradi.

Ikkinchi tipga mansub bo'lgan janrlarda harakat komponenti oldin paydo bo'lganligi va so'z (verbal) qism keyinchalik qo'shilganligini ta'kidlanadi. Birinchi tipga mansub janrlardan farqli ravishda ikkinchi tipdagi verbal komponent marosimning maqsadini reallashtiradi ya'ni tingovchi hissiga ta'sir o'tkazishini e'tirof etadi.

Uchinchi tipdagi janrlarda ham ikkinchi tipdagi janrlar singari xatti-harakat avval paydo bo'lganligi, so'z komponenti keyinchalik qo'shilganligi ta'kidlanadi. Shunga qaramasdan verbal qism bu janrlarda faol ishtirok etganligi, ammo so'z komponentsiz bu janrlar yashashi mumkinligini e'tirof etadi.

Verbal komponent bu tipga mansub folklor janrlari tarkibidan tushib qolsa ham marosim birinchi komponent bilan bog'liq holda mustaqil, jonli yashashda davom etishi mumkin. Chunki kishilarning maishiy hayotidagi har qanday o'zgarishlar bevosita harakat komponenti orqali marosimning kechish tarziga ta'sir ko'rsatadi.

Olim B.Sarimsoqovning xulosalariga ko'ra marosimning ikki xatti-harakat va verbar qism turli janrlarda turli darajada xarakterda bo'lganligini hisobga olib, ular har bir marosim tahlilida tadqiq etilishi lozim.

Marosim folklori xalqimizning ko'hna boyligi, u hamma davrlarda ham o'zining tarbiyaviy ta'sirchan g'oyalari bilan kishilarning ma'naviy jihatdan yuksak shaxs bo'lib shakllanishida hissador bo'lib kelgan. Xulosa qilib aytganda, marosim inson turmushida muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi va kishilar hayotidagi eng azaliy voqealarni (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lim kabi)larni qayd etadi, rasmiylashtiradi. Har qanday marosim urf-odat hisoblanadi, ammo har qanday urf-odat marosim bo'la olmaydi. Marosim xalq urf-odatlarining ma'lum qismini tashkil etadi, qolganlari esa marosimsiz rioya qilinadigan rasm-rusum, irim-sirim va an'analar hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. – T: O'zSSR FA nashriyoti, 1959. – 308 b.
2. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. – T.: "FAN", 1974. – 224 b.
3. Gulyor: Farg'ona xalq qo'shiqlari / to'plovchi H.Razzoqov/. – Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. – 241 b.
4. Jo'raev M. O'zbek mavsum marosim folklori. Ttoshkent.: "FAN", 2008. – 292 b.
5. Jo'raev M. Navro'z bayrami. Toshkent.: O'zbRes FA "FAN", 2009. – 231 b
6. Jo'raev M. Navro'z bayrami. Toshkent.: O'zbRes FA "FAN" nashriyoti. 2009. - 231 b.
7. Imomov K. va boshq. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent.: O'qituvchi, 1990. – 304
8. Kelinoy qo'shiqlari: Xalq qo'shiqlari va termalari/ Yozib oluvchi va to'plab nashrga tayyorlovchi O.Sobirov. – Toshkent.: Adabiyot va sa'nat nashriyoti, 1981. – 240 b.
9. Navro'z: Navro'z bilan bog'liq qo'shiqlar, afsonalar, odatlar va irimlar/Tuzuvchilar: T. Mirzaev, M. Jo'raev. – Toshkent.: "FAN", 1992. – 100 b.
10. Ostonasi tillodan: To'y qo'shiqlari/Nashrga tayyorlovchilar: M. Mirzaeva, A. Musaqulov. – Toshkent.: "FAN", 1992. – 112 b.
11. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Toshkent.: "FAN", 1986. – 216 b.
12. Sarimsoqov B. Qo'shiqlar / O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent.: O'qituvchi, 1990. 144 b.
13. Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. – Toshkent.: O'qituvchi, 1985. – 251 b.
14. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. –Toshkent, Fan, 2010. – 308 b.